

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Sapaev Sindor Qadamboy o'g'lining

**5111000 - Kasb ta'limi (Iqtisodiyot)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kasb ta'limi o'qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

Ilmiy rahbar:

Atabayeva K.

Urganch 2015 yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“Kasb ta’limi” kafedrası

Kasb ta’limi o`qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari

Bajaruvchi: Sapaev Sindor Qadamboy o`g`li

Rahbar: Atabayeva K.

**Urganch shahri
2015-yil**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI
“KASB TA’LIMI” kafedresi

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO`YICHA TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Sapaev Sindor Qadamboy o`g`liga universitet rektorining 2014 yil “20” dekabrda 217-T & 1 -sonli buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Kasb ta’limi o`qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari” mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan “Kasb ta’limi” kafedresi katta o`qituvchisi, Atabayeva K. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
 3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, ilovalar, ta jadval va ta rasmdan iborat.
 4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlaridan, ”Ta’lim to`g`risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to`g`risidagi qonunlardan olindi.
 5. Bitiruv malakaviy ishga **O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari hamda kasb ta’limi o`qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo`nalishlarini ifodalovchi sxemalar va jadvallar ilova** qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1.	BMI mavzusi va ob'ektini tanlash	07.11.14
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash	28.11.14
3.	O'quv-uslubiy manbalarni o'rganish	05.12.14
4.	BMI rejasini tuzish	09.01.15
5.	1-bobni tayyorlash	23.01.15
6.	2-bobni tayyorlash	06.02.15
7.	Korporativ hamkorlik ob'ektida muhokama qilish	20.02.15
8.	Xulosa va takliflar qismini tayyorlash	07.03.15
9.	BMI taqdimotini tayyorlash	27.03.15
10.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik	29.04.15
11.	Dastlabki himoya	02.05.15

Bitiruv malakaviy ish rahbari: _____ k.o'q. Atabayeva K.R.

Bajaruvchi talaba: _____ Sapaev Sindor Qadamboy o'g'li

2015 yil "___" _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 201__ yil "___" _____ da tasdiqlandi (___-sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ i.f.n., dots. Abdullayev I.S.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Sapaev Sindor Qadamboy o'g'li

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Kasb ta’limi o’qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari”.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 60 bet.

Tushuntirish qismi: Bitiruv malakaviy ishning tushuntirish qismida dastlab kirish qismi berilgan. Keyin 2 ta bob, 6 ta paragrafdan iborat asosiy qismda mavzuning mohiyati ochib berilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishning tushuntirish qismi mavzu bo’yicha xulosa va takliflar bilan yakunlangan.

Ilovalar soni: 3 ta.

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamiz hukumati oliy va xalq ta’limi sohasida o’rtaga qo’yilayotgan vazifalarni bajarish ko’p jihatdan o’qituvchiga bog’liq. Ya’ni iqtisodiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko’zda tutilayotgan maqsadlarga etishish, talaba-yoshlarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o’stirish o’qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalkimizning kelajagi, Mustaqil O’zbekistonning istiqloli ko’p jihatdan o’qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoiyligiga, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalashiga bulgan munosabatiga bog’liq. Uzluksiz ta’lim tizimi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o’qituvchilar maxoratini oshirishni tashkil etish kayta tayyorlash ishi davlat va jamiyatchining diqqat markaziga ko’yilgan. O’qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, yuksak mahoratli, mulohazali bo’lishlariga e’tibor berilmokda. Shuni aytish kerakki, o’qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o’qituvchi bo’lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o’zigina etarli emas. Chunki, pedagogik nazariyada bolalarni o’qitish va tarbiyalash xakida umumiy konun-koidalar, umumlashtirilgan uslubiy g’oyalar bayon etiladi. O’qituvchilarning yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Lekin, o’rta maxsus ta’lim hayoti, amaliy jarayoni esa xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o’qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagog mahorat, notiqlik mahorati va ijodkorlikni talab etadi.

Bu jarayonlarni o’rganish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Bitiruvchi universitetdagi 4 yillik ta’lim jarayonida nazariy bilim olib, malakaviy amaliyotlar davrida ularni amaliyot bilan bog’lab, mukammal o’rgangan. Oxirgi 2 yillikda aynan kasb ta’limi o’qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlarini hamda pedogogik mahoratni oshirish yo’llarini chuqurroq o’rganishga e’tibor qaratgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Talaba bitiruv malakaviy ishini bajarish bo’yicha berilgan barcha topshiriqlarni mustaqil bajardi, kasb ta’limi o’qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlariga doir maxsus adabiyotlarni talqin qildi, ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalarni o’rgandi. U bilimga intiluvchan, tirishqoq va intizomli talaba.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: kasb ta’limi o’qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlarini samaradorligini oshirish yo’nalishlari bo’yicha berilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish imkonini berishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talabalar to'liq bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ k.o'q. Atabayeva K.R.

2015 yil "___" _____

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI

5111000- Kasb ta'limi (Iqtisodiyot)
ta'lim yo'nalishi

Sapaev Sindor Qadamboy o'g'lining
bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: "Kasb ta'limi o'qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari".

Bitiruv malakaviy ishning hajmi: 12112 so'zdan iborat;

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 60 sahifadan iborat;

b) ilovalar soni: 3 ta

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchi, pedagog faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarini, dunyoviy, diniy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning Mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro, ixtisoslik, psixologik, pedagogik bilimli va mahoratli, bo'lishi muhimdir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, birinchi navbatdagi e'tibor pedagoglarni mahoratlarini oshirish, ularni kasb malakalarini rivojlantirishi uchun bir kancha yangi asoslar yuzaga keldi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy e'tibor ta'lim tizimiga va uni amalga oshiruvchi o'qituvchi shaxsiga qaratildi. Ayniqsa unda o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahorati va uning tajribasi talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmog'i ko'rsatib o'tilgan. Bu jarayonlarni o'rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Shunday ekan, bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb va berilgan topshiriqqa to'la mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning "Kirish" qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda joriy qilinishi yoritilgan. Ishda belgilangan vazifalar to'liq bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovasiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Ishlab chiqarish bilan innovasion korporativ hamkorlikni amalga oshirish borasida "Kasb ta'limi" kafedrasida qoshida tuzilgan innovasion guruhlarda kafedra ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar ilmiy-texnologik muammolarini o'rganish bo'yicha rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ishi UrDU “Kasb ta’limi” kafedrası majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan (201__ yil “__” _____dagi __-sonli bayonnoma).

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ish natijalarida olingan ilmiy g’oyalar va amaliy natijalar Urganch ijtimoiy-iqtisodiyot kasb –hunar kolleji tomonidan amaliyotga tadbiiq etish uchun qabul qilingan .

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ish ayrim juz’iy kamchiliklardan ham xoli emas, ammo, ushbu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini, nazariy ahamiyati va ilmiy saviyasini aslo pasaytirmaydi.

Taqrizchi: Urganch "Ijtimoiy iqtisodiyot" KHK

direktori:

_____ **B. Ibragimov.**

2015 yil “__” _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMIning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

* **eslatma:** har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 5111000- Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) ta'lim yo'nalishining
bitiruvchisi Sapaev Sindor Qadamboy o'g'lining

“Kasb ta'limi o'qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari”
mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAKning 2015 yil “___” _____dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. 5111000- Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi **Sapaev Sindor Qadamboy**
o'g'lining

“Kasb ta'limi o'qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari” mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun ____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va “____” deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

a'zolari: _____

2015 yil “__” _____

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Kasb ta’limi” kafedrası

Bitiruv malakaviy ish ___-sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Sapaev Sindor Qadamboy o`g`li Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “Kasb ta’limi o`qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari”

Ilmiy rahbarning ismi-sharifi: k.o`q.Atabayeva K.R.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil “___” _____dagi majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Kafedra mudiri: _____ i.f.n., dots. Abdullayev I.S..

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: _____ prof. Salayev S.K.

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Kasb ta’limi” kafedrası
5111000- Kasb ta’limi (Iqtisodiyot) bakalavr ta’lim yo`nalishi

“TASDIQLAYMAN”
fakultet dekani _____ prof.
Salayev S.K.
“ ___ ” _____ 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: **Sapaev Sindor Qadamboy o`g`li**

1. Ishning mavzusi: “Kasb ta’limi o`qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari” 2014 yil “20” dekabrda universitet rektorining _217-T & 1 -sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ___ ” _____ 2015 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma`lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati

1.Qodirov B. «Ta’lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo`nalishlar». T. «O`zbekiston» - 2000 y.

2. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy, 2003.

3. Rasulov R., Mo`yudinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004-yil.

4.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslar. R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev.-T., 2002-yil

5.E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo`lishi va asoslanishi //Nutq madaniyatiga oid masalalar. -T., Fan, 1971-yil.

6.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., O`qituvchi, 1991-yil

7. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002-y.

8.Muslimov N.A. Bulajak kasb ta'limi o`qituvchisini kasbiy shakllantirish - T: “Fan”, 2004. - 128 b.

4. Ishning maqsadi: ta`limni modernizatsiyalash sharoitida o`qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahorati va uning tajribasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

5. Chizma materiallar ro`yxati: ta jadval va ta ilova

6. Ilmiy rahbar: “Kasb ta’limi” kafedrası katta o`qituvchisi, K.R.Atabayeva

BMI bajaruvchi talaba: _____ Sapaev Sindor Qadamboy o`g`li

Kafedra mudiri: _____ i.f.n., dots. Abdullayev I.S.

Mavzu: “Kasb ta’limi o’qituvchisining nutq texnikasi va nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari”.

REJA:

Kirish

1-BOB. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Pedagogik mahoratning mohiyati va mazmuni, uni tarkib toptirish yo’llari

1.2 Pedagogik mahorat asoslari va pedagogik qobiliyatlar

1.3 Pedagogik texnika va notqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligi

II BOB. KASB TA’LIMI O’QITUVCHISINING NUTQ TEXNIKASI VA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI

2.1 Kasb ta’limi o’qituvchi shaxsining nutq texnikasi va nutq madaniyati

2.2 Zamonaviy pedagogning pedagogik va tarbiyachilik mahoratini oshirish yo’llari

2.3 O’qituvchi nutqini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamiz hukumati oliy va xalq ta'limi soxasida o`rtaga qo`yilayotgan vazifalarni bajarish ko`p jihatdan o`qituvchiga bog`liq. Ya'ni iqtisodiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko`zda tutilayotgan maqsadlarga etishish, talaba-yoshlarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o`stirish o`qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalkimizning kelajagi, Mustaqil O`zbekistonning istiqloli ko`p jihatdan o`qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoiyligiga, yosh avlodni o`qitish va tarbiyalashiga bulgan munosabatiga bog`liq. Uzluksiz ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o`qituvchilar maxoratini oshirishni tashkil etish kayta tayyorlash ishi davlat va jamiyatchining diqqat markaziga ko`yilgan. O`qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, yuksak mahoratli, mulohazali bo`lishlariga e'tibor berilmokda. Shuni aytish kerakki, o`qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o`zigina etarli emas. Chunki, pedagogik nazariyada bolalarni o`qitish va tarbiyalash xakida umumiy konun-koidalar, umumlashtirilgan uslubiy g`oyalar bayon etiladi. O`qituvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Lekin, o`rta maxsus ta'lim hayoti, amaliy jarayoni esa xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o`qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagog mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham Mustaqil O`zbekiston davlatining umumiy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o`qituvchi, pedagog faoliyatiga kobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol, O`zbekistonning Mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to`g`ri anglagan, e'tiqodli fuqaro, ixtisoslik, psixologik, pedagogik bilimli va mahoratli, bo`lishi muhimdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...zamon talablariga mos mutaxassis tayyorlamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda o`quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi

va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi kerak"¹. Shunday ekan, respublikamiz mustaqillikka erishgach, birinchi navbatdagi e'tibor pedagoglarni mahoratlarini oshirish, ularni kasb malakalarini rivojlantirishi uchun bir kancha yangi asoslar yuzaga keldi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy e'tibor ta'lim tizimiga va uni amalga oshiruvchi o'qituvchi shaxsiga qaratildi. Ayniqsa unda o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahorati va uning tajribasi talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmog'i ko'rsatib o'tilgan.

Bu esa, mavzuning tanlanishi uchun asos bo'lib, uning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahoratini oshirish haqida bir qancha etuk mutaxassislar fikr yuritgan. Ulardan - U.K. Azizxodjaeva, mehnat va kasb ta'limini takomillashtirishga L.V. Golish, O'.Q. Tolipov, Gulboev T, B.L. Farberman va Rasulov R., Mo'yudinov Qlarning ishlarida o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahoratini oshirish masalasi tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: ta'limni modernizatsiyalash sharoitida o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik mahorati va uning tajribasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Urganch "Ijtimoiy iqtisodiyot"kasb-hunar kolleji.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: pedagogik mahoratning mohiyati va mazmuni, uni tarkib toptirish yo'llari keng yoritish; pedagogik mahorat asoslari va pedagogik qobiliyatlarni o'rganish; redagogik texnika va notiqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligini keng yoritish; kasb ta'limi o'qituvchi shaxsining nutq texnikasi va nutq madaniyatini hamda zamonaviy

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 80 bet.

iqtisodchi-pedagogning pedagogik,tarbiyachilik mahoratini oshirish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilish va hajmi: kirish, 2 ta bob, 6 ta band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 60 betni tashkil etdi.

1-BOB. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Pedagogik mahoratning mohiyati va mazmuni, uni tarkib toptirish yo`llari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...zamon talablariga mos mutaxassis tayyorlamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda o'quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi kerak"². Shunday ekan, respublikamiz mustaqillikka erishgach, birinchi navbatdagi e'tibor pedagoglarni maxoratlarini oshirish, ularni kasb malakalarini rivojlantirishi uchun bir kancha yangi asoslar yuzaga keldi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy e'tibor ta'lim tizimiga va uni amalga oshiruvchi o'qituvchi shaxsiga qaratildi. Ayniqsa unda o'qituvchining pedagogik mahorati va uning tajribasi talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmog'i ko'rsatib o'tilgan.

O'qituvchi deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol javob qiladi, ularning yaxshi ishlarini ma'qullaydi, bilimini baholaydi, nojoyi xatti-xarakatlari uchun tanbeh beradi. Albatta o'qituvchining fikri, muloxazalarida nisbiylik, sub'ektivlik alomatlarini mavjud. U hammaga aynan birdek juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin u hamma o'quvchilarga nisbatan xolis niyatli yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchani ishonchi komil bo'lmog'i darkor. Sinfda o'qituvchi yaxshi ko'radigan, yomon ko'radigan, o'quvchilar bor degan taassurot tug'ilmasligi kerak.

Xullas, obro' o'qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro' kishining chuqur bilimi, yuksak ahloqiy sifatleri, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va

² I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz tarakkoyoti va xalkimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010.

jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan. Ko`pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'siri nufuzidir.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tuiladi.

O'qituvchilik faoliyat ana shunday xususiyatga ega pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog`liq.

Pedagogik faoliyat kishi shaxsini uning dunyo qarashini, eotiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo`ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalar echish jarayonidir.

O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usullarida, ularni hal qila olish yo`llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai – bo`lgan pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg`or pedagogik tajriba deganda biz o`qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o`quvchilarning ta'lim-tarbiyasining yangi, samarali yo`l va vositalarini qidirib topishni tushunamiz.

Ilg`or pedagogik tajriba o`qituvchi tomonidan qo`llanadigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o`quv-tarbiyaviy ishlarni eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg`or pedagogik tajribani o`rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o`quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o`zgarishlar kiritadi, o`quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish, yangi ko`rinishdagi o`quv jarayonini modellashtirish muammolarini echishga sabab bo`ladi.

Ijodiy ishlaydigan o`qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o`qitish va tarbiyalash, ilg`or o`qituvchilar tajribalarini o`rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko`nikma malakalariga ham ega bo`lishi zarur.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o`qituvchining ijodkor bo`lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o`quvchilarga etkaza olish talabiin qo`ygan.

Bu ahloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy tahsir o'tkazilishida ko'zga tashlanadi.

Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy ahloq kategoriyalariga mos keladi va ularni o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar aniqlaydi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlik, vijdonlilik, halollik, yaxshilik qilish kabilar o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi.

Ahloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi. Yaxshilik-ahloqiy ijobiy fazilat bo'lib, normativ etikaning idealini, individual ahloqda ijobiy-xulqiy fazilatlarni mazmunini inson faoliyati yoki biror hatti-harakatiga ijobiy munosabatining yig'indisini aks ettiradi.

Yaxshilik kishining ongi va ahloqiy amaliyotida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib jamiyat va shaxsga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan tushunchalardir.

Pedagogik etikada yaxshilik tushunchasi o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq holda aniqlashtiriladi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun yomonlikka murosasiz bo'lishi lozim.

Yaxshi istak bilan xush muomalalik, yaxshi qiliq, yaxshi hatti-xarakatning birligi zarur.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri ma'suliyatdir. O'qituvchining masouliyati – ma'suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zammisiga bola shaxsi har tomonlama kamol toptirish ma'suliyati yukladi. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnat tayyorlashi lozim.

Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy ahloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o'qituvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining ma'suliyati uning xuquqini tartibga solib turadigan boshqaradigan kuch, o'qituvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi.

Pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchilar orasida obro' qozonadi. O'qituvchilik qanchalik ko'proq obro' qozonsa, ta'lim-tarbiya mohiyati shunchalik muvaffaqiyatliroq bo'ladi va aksincha, o'qituvchining obro'yi qanchalik past bo'lsa, uning bolalarga ta'sir shuncha bo'sh va o'qituvchilarni voyaga etkazish jarayoni ham shuncha zaif bo'ladi.

Pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi mahoratli ravishda o'tlayotgan darsning ta'limiy-tarbiyaviy tomonlarni tushunarli qilib bolalarni faoliyatini dunyoqarashda tabiat va jamiyat faoliyatidagi o'zgarishlardagi ko'nikmalarni malakalarga aylantiradi.

E'tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash o'qituvchining asosiy sifatlaridan biridir. Maktab o'qituvchisini o'zi targ'ib qilayotgan idealning fazilatlarini shaxsiy namunasida ko'rsatish kerak.

Bolalarga mehr-muhabbat o'qituvchining eng muhim fazilatidir. Bu bolalarning hamma qiliq-qilmishlarini kechirish ularga xushomadguylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqqo'llik, adolatlik bilan qo'yilgan mehr-muhabbat bo'lib ana shu sifatga ega bo'lgan shaxs o'zining ko'p vaqtini va kuchini bolalarga baishlaydi. U zarur vaqtda istaklarini qurbon qilib, bolalar manfaatini yo'lida ehtiyojlarini cheklashga tayyor turadi.

Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o'qituvchi shaxsiga xos sifat, zero xaqiqiy pedagog to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol holda turishining amaliy namunasini ko'rsatadi.

O'qituvchining muhim fazilati kishilar bilan tez el bo'la olish, ko'pchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashlik bo'lib, bu unda muomala madaniyatining

yuksakligini ifodalaydi. Chunki o`qituvchiga xamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to`g`ri keladi. O`qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kundalik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyati taominlaydi.

Aloqalarda, faoliyatda duch kelinadigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazaridan degmatik munosabatda bo`lish emas, balki ularni o`z xolicha idrok etish, adolatli baholash, munosabatda odil bo`lish o`qituvchining obro`sini oshiradi. O`qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo`lsagina, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo`la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiq kungil, qat`iy bo`lish, o`zini tuta bilish, bardoshli bo`lishi kerak. Bolalarga nisbatan talabchan bo`lishi bilan o`z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazaridan qaray olishi kerak.

O`qituvchi odobi umuminsoniy ahloqning kategoriyalari, qoidalari va normalarini ta`lim-tarbiya jarayoniga mos xususiyatlari bilan uyg`unlashtirish, pedagogning o`quvchilar, o`qituvchilar jamoasi, ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatida ifodalanadigan kasbiy-ahloqiy xususiyatdir.

O`qituvchi pedagogik etikaning normalarini o`zlashtirib olishi, tajribada qo`llashi, o`zining dunyo qarashi va ahloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim.

Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko`rish natijasida pedagogik etikaning qoidalari o`qituvchining o`z e`tiqodiga, intilishiga, o`z ahloqiy sifatiga aylanadi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta`lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o`qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Har bir bola o`z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o`rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o`zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko`rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O`qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarnio`z ichiga oladi:

1. O`qituvchi shaxsining xususiyatlari.
2. O`qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar.
3. Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni.

O`qituvchining shaxsining xususiyatlari:

- G`oyaviy sohada: Ilmiy dunyoqarash va e`tiqod: Ijtimoiy etik-ahloqiy zaruriyatlarini chuqur tushunish: Ijtimoiy va grajdanlik burchini anglash: Ijtimoiy-siyosiy faollik:
- Pedagoglik kasb sohasida: Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik tanqid, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qatoylik va maqsadga intilish, vazminlik, o`zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Keng ilmiy saviya, ma`naviy extiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik maolomotni oshirishga intilish esa bilish sohasiga kiradi. Pedagog, o`qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o`qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo`lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo`lmoi lozim. Boshqa kasblar kabi o`qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagogik faoliyat har bir o`qituvchidan mahoratni talab etadi. Har qanday o`qituvchi buni hohlaydi lekin bunga erishish uchun o`qituvchidan o`zi o`tadigan fani metodikasini yaxshi bilishi ish stajiga ega bo`lishi va texnikasiga chuqur e`tibor berishi bilan amalga oshiriladi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o`qituvchi pedagogik mahoratga ega bo`lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo`ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste`dodli kishidagina pedagogik mahorat bo`lishi mumkin.

O`qituvchilarni xam ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o`rgata olishini talab qiladi.

Shuning uchun o`qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O`qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to`playdi, tahlil qiladi. Ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o`zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida hozirgi zamon o`qituvchisi uchun zarur bo`lgan shu muhim fazilatlarni egallaydi.

1.2 Pedagogik mahorat asoslari va pedagogik qobiliyatlar

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi. Yomon ma'nodagi eski usuldan, bir qolibdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi - maxsus bilimlar va malakalar: bolalarni kuzatish, ularning o'zidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Pedagogik mehnatni, ya'ni ta'lim tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish faqat iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lmay, balki ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishda, uni takomillashtirishda ham katta ahamiyatga molikdir. Faoliyatni turi, tejamli tashkil qilish kishining o'zi uchun ham, u bilan birga ishlaydigan kishilar uchun ham qulaylik tudiradi.

O'qituvchi mehnatining o'ziga xosligi uning ko'p qirraliligi va murakkabligidir. Shu bilan birga bu mehnat ijodiy xarakterga ega, ya'ni u, faqat yangilik yaratib qolmaydi, balki mazmunan o'zgarib ham boradi. Har bir vaziyat, o'quvchilar bilan munosabatning har bir ongli o'qituvchilikda ma'lum maonoda bir-biriga o'xshamaydi va takrorlanmaydi.

O'qituvchi ish ko'radigan soha - o'quvchi ham jismoniy, aqliy, ruhiy jihatda o'zgarib boradi. O'qituvchi mehnatining qiyin murakkabligi, o'quvchi bilan muomala qilishning, unga taosir ko'rsatishning nozikligi undan tarbiya nazariyasini, psixologiya fanini chuqur bilishi talab qiladi.

O`qituvchi mehnatining ko`p qirraliligi, uni bajarishga sarflanadigan vaqtda ham ko`rinadi. Ta`lim-tarbiyaning murakkablashuvi o`qituvchi mehnatiga ketadigan vaqt miqdorining ko`payib borishi bilan xarakterlanadi. Bu esa o`qituvchining ishi va bo`sh vaqti o`rtasidagi chegara tobora yo`qolib borishga sabab bo`lmoqda.

O`qituvchi mehnatining yana bir xususiyati doimo o`qituvchilar nazorati va nigohi ostida amalga oshishidir.

O`qituvchi o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berar ekan, uning faoliyati turlari uzluksiz almashinib turadi.

Ta`lim-tarbiya ishlarining murakkablashib borishi o`qituvchining vazifasi qiyinlashtirmoqda va faoliyat sohasini kengaytirmoqda. O`qituvchi bilimlarini o`zlashtirib, keyin ularni yoshlarga o`rgatadigan tadqiqotchi olim darajasiga yaqinlashmoqda, o`qituvchi bolalar jamoasining tadqiqotchisi, nozik psixologik, tarbiyachi sifatida nazariyotchi va amaliyotchiga xos xususiyatlarni o`zlashtirmoqda.

Biz o`qituvchining mehnati o`z xarakteri bilan tadqiqotchi olim mehnatiga yaqinlashmoqda, dedik. Ammo bu ikkala faoliyat o`rtasidagi umumiylik bo`lsada ularning tafovuti ham mavjud. Bu tafovut o`qituvchi mehnatining o`ziga xos xususiyati bilan belgilanadi.

O`qituvchining maqsadi fan uchun yangilik ochish, pedagogika nazariyasiga tugal ilmiy hissa qo`shish emas, balki o`zining va boshqalarning ilg`or tajribasini chuqur tahlil qilib, ta`lim tarbiyaning samarali usul va vositalarni topishdir. O`qituvchilarning ijodi ilmiy pedagogik tadqiqot bilan ta`lim tarbiya tajribasini bir biriga bog`laydigan zanjir rolini o`ynaydi.

Ilg`or maktablarning ish tajribasidan ko`rinadiki, xaqiqiy ilmiy va qimmatli pedagogik asar ana shu bolanish tufayli yuzaga kelishi mumkin va shunday asardagi pedagogik xulosalar, tavsiyalar ko`pchilikka ma`qul bo`ladi va maktablarda ta`lim tarbiyaning takomillashuviga munosib hissa qo`shadi.

O`qituvchining ijodi hamma vaqt ma`lum tajribaga asoslanadi. Chunki ijodkor kishi nimagadir intilishi kerak. Buning uchun yo`lga yulduz ilg`or

pedagogik tajribadir. O`qituvchi ilg`or metod va usullarni egallash hamda o`z ishida qo`llash yo`llarini izlab pedagogik, ruxshunoslik va ta`lim metodikasining yutuqlariga murojat qiladi. Chunki ijodiy ishlaydigan o`qituvchi o`zgalar tajribasini tahlilsiz to`g`ridan-to`g`ri qabul qilmay, o`z tajribasiga taqqoslab ko`radi.

Shundan keyingina uning yangi tomonlrini qabul qiladi. Demak, ijodkorlik xisssiyot emas, balki o`qituvchining uzoq ishlashi, yuksak pedagogik madaniyatining mahsulidir.

O`qituvchilik sharafli, lekin murakkab kasbdir. Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o`zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariya bolalarni o`qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan usuliy g`oyalar bayon etiladi. O`qituvchilarning yosh individual xususiyatlarini e`tiborga olish ta`kidlanadi. Mktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu o`qituvchini keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Shuning uchun ham mustaqil O`zbekiston davlatining umumiy ta`lim maktabida ishlaydigan o`qituvchi:

- Pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma`naviy barkamol;
- O`zbekiston mustaqil davlat sifatidla taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to`g`ri anglagan, e`tiqodli fuqaro;
- Ihtisosga doir bilimlari, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- O`qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko`radigan har bir o`qituvchi ulg`ayib yaxshi odam bo`lishiga chin ko`ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko`maklashadigan;
- Erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo`lmog`i darkor.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo`ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi.

Malaka va uddaburonlik mashq o`qish natijasida hisoblansa qobiliyatning rivojlanish uchun esa yana iste`dod, layoqat va zehn ya`ni inson nerv tuzimida anatomik-fiziologogik xususiyat bo`lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo`lishi uchun o`qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo`lmog`i va tarbiyalab etishtirilmog`i lozim.

- Bilish qobiliyati- fanning tegishli sohalariga oid matematika, fizika , biologiya, adabiyot va xokazolarga doir qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo`lgan o`qituvchi fanni o`quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o`z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidn ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.
- Tushuntira olish qobiliyati - o`quv materialini o`quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o`quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg`otish qobiliyatidir. O`qituvchi zarur hollarda o`quv materialini o`zgartira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushinarli qilib o`quvchilarga etkaza olishi darkor.

O`quvchilar ruhiyatini hisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog o`quvchilarning bilmi va kamolat darajasini hisobga oladi, ularning nima bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nima unitib qo`yganliklarini tasavvur etadi.

Qobiliyat o`qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o`quvchilarning qanday o`zlashtirayotganliklarini qator belgilar asosida payqab oladi va zarur xollarda bayon qilish usulini o`zgartiradi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati_ o`quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o`qituvchi o`quvchining ruhiyatidagi ko`z ilgamas o`zgarishlarni ham faxmlab oladi.

- O`quvchilar bunday o`qituvchi haqida: Qaramayotganga o`xshayodiyu, xamma narsani ko`rib turadi! O`quvchining hafa bo`lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko`zidan biladi, deydilar.
- Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifani hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o`z ishini to`g`ri uyushtirishni nazarda tutadi.

O`z ishini tashkil etish deganda ishni to`g`ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi.

Tajribali o`qituvchilarda vaqtni o`ziga xos his etishini vaqtga qarab to`g`ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo`ladi.

- Obro` ortira olish qobiliyati - o`quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy taosir ko`rsatish va shu asosida obro` qozona olishdir. Obro` faqat shu asosdagina emas, balki o`qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va xokazolar asosida ham qozoniladi.

Bu qobiliyat o`qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig`indisiga, chunonchi uning ifodaviy sifatlariga dalilligi, qatoyligi, talabchanligi, shuningdek o`quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish ma`suliyatini xis etishga, o`zining xaq ekanligini ishonishga, bu ishonchni o`quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog`liq.

O`quvchilar qupollik qilmaydigan, qo`rqitmaydigan, to`g`ri talab qo`ya oladigan o`qituvchini juda hurmat qiladilar. O`qituvchining bo`shangligi, laxmaligi, savotsozligi va ifodasizligini yoqtirmaydilar.

- To`g`ri muomala qila olish qobiliyati– bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o`zaro munosabatlar o`rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.
- Kelajakni ko`ra bilish qobiliyati – o`z xarakatlarining oqibatini ko`ra bilishda, o`quvchining kelgusida qanday odam bo`lishini tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga tarbiyaning qudratiga boliqdir.

- Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o`qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari, xajmi kuchi, ko`chuvchanligi idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyat o`qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o`qituvchi saboqni bayon qilish mazmunini va formasini o`z fikrini (yoki o`quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o`quvchilarni ko`rib turadi, toliqish, e`tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatadi, intizomsizlik xollarini e`tibordan qochirmaydi, nihoyat o`z hatti harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o`qituvchi ko`pincha saboqni bayon qilishga berilib ketib, o`quvchilarni e`tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo`yadi; bordiyu o`quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo`qotadi.

O`qituvchi yuqorida ko`rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga aniq maqsadni ko`zlash, qat`iylik, mehnat sevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ham ega bo`lishi kerak. Bunday xususiyatlar bo`lmasa, o`rta pedagogik darajasidan yuqoriga ko`tarila olmaydi.

1.3 Pedagogik texnika va notiqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligi

Pedagogik texnika o`qituvchisiga o`quv faoliyatida ham o`qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo`lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o`qituvchining nutq malakalarini, ya`ni savodli gapirish, o`z nutqni chiroyli va tushunarli, taosirchan qilib bayon etish, o`z fikr va xis tuyg`ularini so`zda aniq ifodalash malakalarini aytib o`tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi pedagogning mimik va fantomimik ifodaliligidir. Aniq imo-ishora, ma`noli qarash, rahbarlantiruvchi istehzoli tabassum pedagogik ta`sir ko`rsatishda ko`p so`zli tushuntirish yoki e`tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo`ladi.

Pedagogik texnika bu shunday bir malakalar yig`indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko`rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o`z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. Bolalar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo`qligi) uning xulq atvorida namoyon bo`ladi. A.S.Makarenko ularni nazarda tutib, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, xazillashishni, quvnoq, jaxildor bo`lishini bilishi lozim, u o`zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalansin» deb yozgan edi.

Pedagogik vaziyatlarning xaddan tashqari xilma-xilligi pedagogdan ijodiy xulq atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika o`qituvchi malakalarining xuddi shunday yiindisidirki, u o`qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali taosir ko`rsatishga yordam beradi.

Rivojlangan pedagogik texnika o`qituvchisiga o`zini pedagogik faoliyatida chuqurroq va yaqqolroq ko`rsatish bolalar bilan muomala qilganda o`z shaxsiyatidagi kasbiy jihatdan barcha yaxshi, ahamiyatli narsalarni olib berishga yordamlashadi. Mukammal pedagogik texnika pedagogning vaqti va kuchlarini

ijodiy ish uchun bo`shatib beradi, pedagogik o`zaro taosir ko`rsatish jarayonida bolalar bilan muomala qilishda zarur so`zni topish yoki muvaffaqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishda o`z fikrini chalitmaslik imkonini beradi. Pedagogik texnikani egallab olgan o`qituvchi ovozi bo`g`ilganidan yoki o`zining ish bilan bog`liq bo`lmagan qandaydir kechinmalarini unutishni bilmasligidan azoblanib yurmaydi. Demak, pedagogik texnikani egallash o`qituvchining o`z kasb faoliyatidan qanoatlanishi darajasining o`shishiga olib kelishi mumkin va lozim.

Avvalo pedagogik texnikaning hamma uchun umumiy bo`lgan malakalarini tadbiq etish sohasini pedagogning bolalar bilan bevosita muomalasini qayd qilib o`tamiz.

Xuddi ana shu narsa pedagogik texnika malakalarining namoyon bo`lishini ma'lum darajada vaziyat taqozosi bilan, ichki sabab natijasida vujudga keladigan aytish mumkinki, to`satdan bo`lgan narsaga aylantiradi. Rivojlangan pedagogik texnika o`qituvchisiga o`quvchilar bilan muomala qilganda zarur so`z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o`tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalikni va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Bundan tashqari, haqiqiy pedagogik ta'sir ko`rsatishda o`qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir vaqtda namoyon bo`ladi. Nutq imo-ishora, mimika, xarakter bilan sodir bo`ladi, uzluksiz o`zini tuta bilish taosirchan vositalarni tanlashga, muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Pedagogik texnika malakalarining boshqa muhim xususiyati shundan iboratki, ularning hammasi aniq ifodalangan individual-shaxsiy tusda bo`ladi, ya'ni pedagogning individual psixik fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, jinsi, mijozi, feol atvori, sixat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga ancha boliq bo`ladi.

Pedagogik texnika malakalari o`qituvchining individual shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bolikliqi faqat bu malakalarning individual tusda bo`lishi emas, balki ularning shakllanishi pedagogik shaxsiga ta'sir ko`rsatishda

ham namoyon bo`ladi. Yuqorida aytib o`tilganidek, pedagogik texnika malakalari vaziyatga boliq ravishda pedagogning xulq-atvoriga ayni bir daqiqa namoyon bo`ladi. Shu ma`noda gapirganda, malakalarni egallash o`qituvchining pedagogik jihatda maqsadga muvofiq xulq-atvorini tashkil etish vositalaridan bir sifatida qaralishi mumkin.

Pedagogik texnikaning shakllanishi shaxsning unchalik payqab bo`lmas sifatlariga ham rivojlantiruvchi taosir ko`rsatadi. Nutqning ifodali, sof, savodli bo`lishi ustida ishlash fikrlashning ravon bo`lishga taosir qiladi.

Texnik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash feol belgisi bo`lgan hissiy va vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnikaning uchunchi muhim xususiyati shuki, pedagogik ta`sir ko`rsatishdagi xuddi ana shu malakalar orqali pedagogning ma`naviy va estetik nuqtai nazarlarida tarbiyalanuvchilarga yanada to`laroq ochib beriladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo`llari o`qituvchi rahbarligidagi mashg`ulotlar (pedagogik texnikani o`rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash) dir.

Pedagogik texnika malakalarining individual shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikaning egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatda o`z-o`zini tarbiyalash ya`ni talabning o`zida mohir o`qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rolp uynaydi, deb aytish mumkin, kasbiy ideal sari bu xarakterda ham pedagogik texnikani egallash muhim rol o`ynamog`i zarur. Tashkiliy metodik jixatdan pedagogik texnika mashg`ulotlari individual, gruppaviy yoki ketma-ketlikda o`tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar lektsiyalarida yoki tegishli adabiyotni (xususan, maskur qo`llaniladi) mustaqil o`qishda egallanishi, mumkin Avtomatlashtirishga doir ayrim odiy xarakterlar (to`g`ri artikulatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko`rsatilishi mumkin. Tegishli ko`nikmalarini ishlab chiqish individual ishlashni dastlab o`qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlashni talab qiladi.

Barcha hollarda ham individual ham guruxiy mashg`ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim.

Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang`ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko`rsatishga, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan ko`nikmalar haqida ham berishi mumkin emas. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo`lga qo`yilishi, to`g`ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo`lgan savodli, ifodali nutq, mimik va fontamimik aniqlik va boshqalar bo`lishi mumkin.

Bunday ko`nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko`nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlanich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi etishmaydigan malakalarni shakllantirishiga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to`liq majmuini o`z ichiga oladi.

So`z insonni xayvondan judo ayladi, deydilar xazrat Alisher Navoiy. Bir tasavvur qilib ko`ring-a, so`zsiz ahvolimiz ne kechardi. So`zlash qobiliyati-nutq borki, odamlar bir-birlari bilan muomala qiladilar, muloqotda bo`ladilar, fikr bayon etadilar, bir-birlarini tushunadilar yoki rad etadilar. Dardga darmon bo`ladigan ham shu so`z, turmushga ou soladigan ham xuddi shu so`z! So`zning xili va turi ko`pdir: shirin so`z, dagal so`z, beodob so`z, qochirim so`z, hikmatli so`z, gap-so`z, tabrik so`z, mish-mish, ivo, kelinchak allasi, ona duosi, ota olqishi, iltimos, buyruq, vaoda, lafz, azmu qaror, yigit so`zi. Odamning birinchi so`zi chaqaloqning ingasi, so`ngi so`zi – alvidodir

Darhaqiqat, so`z odamning beshikdan to`tobutga qadar bir umrlik yo`ldoshi. So`zsiz insonning jamiyat, ma`naviy hayot yo`qdir.

Deyarli barcha mahluqotda til bor. U issiq-sovuqni, taom-mazzani biluvchi, ovqatlanishda ishtirok etuvchi aozo. Odamda esa bulardan tashqari nutq ovushlarini hosil qiladi, yaoni insonning so`zlash qobiliyati til orqali amalga oshadi.

Er yuzida qancha millat, halq elat, qabila bo`lsa, shuncha til bor. Tilsiz halq yo`q. Xalqsiz esa til bo`lmaydi. Bular egizak tushunchalardir, biridan ayrib bo`lmaydi, ularni ayrib qo`yilsa, ikkisi ham o`zligini yo`qotadi. Halq boshqa bir halqqa qo`shilib ketadi, uning tili esa o`lik tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytib o`tishni lozim ko`ramizki, birgina til so`zi insonni ham tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini yaqqol ko`rish mumkin.

Er yuzidagi barcha halqlarning tillari, ularda milionlab odamgamlashadimi yoki atiga bir-ikki ming kishi so`zlashadimi, bundan qatoiy nazar, o`zlari uchun aziz va keraklidir. Tilni kam sonli elat gaplashar ekan deb kamsitib yoki bo`lmasa, ko`p sonli millatning tili ekan deb ululab bo`lmaydi. Bunda son jihatini mezon qilib bo`lmaydi. Har kimniki o`ziga, oy bo`lib ko`rinadi ko`ziga-da! Lekin dunyoda juda taraqqiy etgan, boy jahoniy tillar ham bor, endi tetapoya qilayotgan tillar ham yo`q emas. Bu o`sha tillarning sohibi bo`lmish millat yoki elatlarning tadrijiy ravnaqi, bosib o`tgan tarixiy yo`li, insoniy jamiyatning qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekani, iqtisodi, madaniyati, fani va maonaviyati hamda shu kabi omillarga boliqdir, albatta. Bizningcha, loqal birgina ona allasi mavjud bo`lgan til ham yashashga haqlidir. Biz o`zbeklar uchun esa o`z ona tilimiz bo`lmish o`zbek (turkiy) tili azizu- maotabardir.

Har bir millat o`z ona til va adabiyotini bilishi borligini ko`rsatadigan oyna. Milliy tilni yo`qotmak millatning ruhini yo`qotmakdir. Biz Turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursin, kundan-kun unitmak va yo`qotmakdadir. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangan kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmoqdadir.

Yohud bizga na bo`ldi? Bobolarimiz yo`lindan chiqub ketduk. Yaxshi qo`shningdan olguncha, yomon uyingdan qidir:-demishlar. Bobolarimizga

etushgon va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga xech kamlik qilmas. O`z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo`qolgan parini ham toparmiz.

«Quruq so`z quloqqa yoqmas»- demishlar.

Agar so`z aql va xikmatga muvofiq bo`lib, o`ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo`lmasa, asalari orasida gun gunlab yurgan qovoqari kabi quruq gun gunlamoq faqat bosh oriidan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurgan qattiq kulfatlarning ko`pi yumshoq tilimizdan keladur.

Shuning uchun! «Ko`p o`yla, oz so`zla», - demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so`zga usta til, so`zlarning eng yaxshisi bo`lib, oxirini o`ylab so`zlagan so`zdir.

Shirin suxanlik, inson faoliyatini asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki uning aql-sahovati, fikr-tuyg`ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri maolom darajada, so`zda ifoda etiladi. Yaxshi so`z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so`z hayotning quroli bo`lib, unda olam-olam maono yotadi.

So`z tilning tayanchi hamda go`zalligidir. So`z yuz va ko`z, tilning ko`rki hisoblanadi.

«So`zning otasi aql, onasi til» deyishadi keksalar.

Muomala madaniyatida so`z aql dan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo`lsa tebratadi. Odamning odobi dastavval uning tili, keyin tili orqali bilimida ko`rinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini o`zlashtirgan kishilarga farosatli, fixmli, odobli, aqlli, es hushli, madaniyatli deb baho beramiz.

Qur`oni Karimda insonning aytadigan so`zini har bir xati xarakatini, qiladigan ishini tartibga soluvchi qadar xukumlar bor. Islom me`yor, mezon va mutanosiblikni mushtarak etuvchi bir manzilga sifatida insonning o`zidan chiqadigan har bir kalimani muayyan asoslar bilan izga soladi.

Qur`oni Karimda u biron bir kalimani so`zlay boshlar ekan, yonida uning so`zlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi degan oyat mavjud. Oyatning mazmuni

shundan iboratki, og`izdan chiqayotgan har qanday so`zlar odamlar orasida tezlik bilan o`z bahosini oladi.

Shunday ekan, inson yoqimli, foydali zaruriy mavzularda so`zlamog`i, behuda va ma`nosiz so`zlardan ehtiyot bo`lmog`i lozim. Xadisu sharifda ta`kidlanishicha: so`zning foyda zararini uylab so`zlagan kishi odamlar oldida buyuk o`rin olgan kabi Alloh qoshida ham marhamadga tegishli odam bo`ladilar.

Aqli bor odam har vaqt o`ziga zarar keltiradigan so`zlardan saqlanur. Musulmon odam, o`zini Allohga topshirgan kishi yolg`on so`zlashga yo`l qo`ymas. O`ziga foydali, zararli bo`lishiga qaramasdan har vaqt to`g`ri so`zlar. Yolg`on so`zlamog`lik qo`lidan ish kelmaydigan tuban kishilar odatidir. To`g`ri so`zlaydigan odam o`z ishini o`zi bajaruvchi, ishda sobiq turuvchidir. Shuning uchun u va`da qilsa, va`dasini amalga oshirur.

Alisher Navoiy «Xayratul Abror» asarida shunday deb yozadilar. So`z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmat baho narsa ham unga sadaf bo`la olmaydi. So`z jon bo`lib, ruh uning qolipidir. Tanda ruhi bor odam zoti unga ehtiyot sezadi. Alisher Navoiy yana shunday deydilar: Aqlli odam yolon gapirmas, ammo barcha ros gapni ham aytaverish ham to`g`ri emas. Birovning ko`zi g`ilay, nogirondir ammo u aybdor emas.

Birovni nohaq xijolatga solmoq o`z nodonligini isbot qilmoq va bir ko`ngilni og`ritmoqdir. Buyuk mutafakkur Mahmud Kashg`oriy ham so`z kudratini yuksak baholab, inson tili orqali, o`zining yaxshi va yomon fazilatini namoyon etadi, o`zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi; - deb taokidlagan edilar.

Ota-bobolarimizdan meros bo`lib qolayotgan yaxshi so`z kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Yomon so`z esa do`stni dushmanga aylantiradi.

Insonlar o`rtasidagi fitna-nizo uyg`otadi. Siz suhbatdoshingizning qanday odam ekanligini so`zidan bilib olasiz. So`z eng johil kishilarni yumshata olish, odamlarni xayrli ishlarga chorlash kuchiga ega.

Bundan ko`rinib turibdiki, har bir inson birov bilan gaplashayotganda nihoyatda uylab gapirishi, imkoniyatiga qarab vaoda berishi muhim ahamiyatga ega.

Shu borada yana bir bor Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. «Tilga ixtiyorsiz – elaga e`tiborsiz». Ko`p so`ylovchi valdiroq tunda tong otguncha xuriydigan itga o`xshaydi. Tili yomon halq ko`p ko`ngiliga jarohat etkazgani kabi, o`z boshiga ham ofat etkazadi. Nodoning daxshatga soluvchi ajrashga tamoq qormog`i eshshakning o`rinsiz xangramog`i shirinsuxan so`zni yumshoqlik va kelishuv bilan aytadilar. Imkoni bor xar bir yaxshilik so`z orqalidir deb ta`kidlaydi.(ilova)

Demak, shirin muomala har bir kishiga quvonch, bemorga malham va najot bag`ishlaydi, sovuq so`z esa odamni xasta qilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, muomala madaniyatini egallagan kishi el yurt oldida baobro` bo`ladi. Shirin so`z har birimiz uchun ham qarz, ham farz bo`lib qolsin. Halqimizning aytilgan so`z otilgan o`q og`izdan chiqqan so`zni ot bilan quvib etolmaysan kabi naqlariga amal qilib, o`ylab muomalada bo`laylik.

«So`zning dami qilichdan o`tkir» – deydi halqimiz.

Shunday ekan, xech bir insonning qalbini tig` bilan tilmaylik. Aksincha, shirin suxanlik, halollik, izzat ikromni o`z joyiga qo`yaylik. Shirin so`z ilonni inidan chiqarganidek, muloyim so`z vaxshiylarni ulfatga aylantiradi. Til fikrni shakllantirish va uni yuzaga chikarish, birovga etkazish uchun imkoniyat sifatida o`qituvchining ongida mavjud. U ma`lum bir so`zlar, qo`shimchalar, ularning o`zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun qoidalar majmuasidir. Til asosiy qonun qoidalari, zarur birliklarni nutq tovushlari, qo`shimchalar, so`zlarni, ularning birikish qonun qoidalarini o`qituvchi jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi. Ularni o`rganish uchun maktabda o`qish zarur emas. Umrida maktab ko`rmagan odamlar ham tilni hayot, turmush, jamiyat talablari asosida o`zlashtiradilar. Lekin ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi. Tilning bunday

imkoniyatlari behat xilma-xildir. Me'yor mana shu imkoniyatlarni g'alvirdan o'tkazuvchi omildir.

Me'yor jamiyatda maolun bir maqsadni ko'zlagan xolda til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasidir.

Me'yorning oliy ko'rinishi milliy adabiy til uslublari, mezonlarida o'z aksini topadi. Milliy adabiy til esa faqat ma'lum bir uslubiy ko'rinishdagina yuzaga chiqadi.

Nutq tafakkur maxsuli. Shuning uchun ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan yana bir muhim talab o'qituvchilar tafakkurini rivojlantirishdir. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi.

Ularning o'zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy shakli bo'lsa, til tafakkurni maolun bir shaklga solib so'zlar, so'z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasidir.

Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o'qituvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo'ladi. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, kimga, nimaga, qachon, qaerda va qanday so'zlashgacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

II BOB. KASB TA'LIMI O'QITUVCHISINING NUTQ TEXNIKASI VA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

2.1 Kasb ta'limi o'qituvchi shaxsining nutq texnikasi va nutq madaniyati

Nutq inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham nutq emasmi! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy masullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur maxsullarining hayotga tabiiq etilishiga vosita bo'luvchi qudratli quroldir.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da ham til va nutqqa alohida e'tibor berilganki, ular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari-notiqlikni a'lo deb biladi: Bilginki, «hamma hunardan so'z hunari yaxshi» shuning uchun ham kishi suhandon va notiq bo'lishini ta'kilaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo'lini tinimsiz mehnat va o'rganish deb uqtiradi.

Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomuqobil bo'lib chiqsa, tilning ofatidir». Demak, til har qancha qudratli zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq.

O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega Notiqlik san'atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilar edi. Ular, notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baiand va ta'sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining naza-riyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'atlari bilan birga notiqlik san'ati ham murakkab va

muhim san'at asari sifatida e'tirof etilgan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni "San'atlar shohi" deb atashgan.

Yunon notioqlari og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmining qoidalarini chuqur o'zlashtirganlar. Ular o'z fikrlari va tuyg'ularini ruhan o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir notioq o'z ustida yillab tinimsiz mashg'ulotlar olib borgan, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'zlarining ta'sirchan nutqlarini namoyish qilish bilan notiqlik san'atini *"Mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli"* deb hisoblaganlar va buni o'z faoliyatlarida isbotlab berganlar.

Mashhur yunon faylasufi *Sokrat* (eramizdan avvalgi 469 — 399 yiilar) o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda munozara, savol-javob usulini joriy qilib, ushbu usul orqali suhbat metodiga asos solgan

Sokratning shogirdi Platon esa o'z ustozini davom ettirib, savol-javobni notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyatini o'z asarlarida yoritadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholab, uni mazmunan amaliy va nazariy jihatdan yanada boyitdi.

Yunonistonda notiqlik san'atining har tomonlama takomillashishi Demosfen (eramizdan avvalgi 384—322 yiilar) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bar-dosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyodasi, ya'ni o'z davrida "notiqlik san'atining elitdasi" sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasi notioqlik san'atiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

Sitseron tomonidan ishlab chiqilgan va nazariy hamda amaliy jihatdan

asoslangan notqlik san'ati haqidagi ma'lumotlarni, tizimlar va uslublarni rimlik Kvintilian (eramizdan avvalgi 35-95 yillar) ma'lum bir tartibga keltirib, tabaqalashtirib, undan notqlik san'ati sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchilar unumli foydalanishlari uchun qayta ishlab chi-qadi. U notqlik san'atining balandparvoz, asabga teguvchi teatr artist-lariga xos ovoz ritorikasiga qarshi edi. Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega bo'lgan, mazmunan boy, mukammal va "tiniq" nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U "Tarbiya haqida" nomli asarida o'z nazariyalariga asoslanib, notqlik san'atini o'rganish metodikasini yaratdi. Faylasuf olim o'z asarida ilk bor notqlik san'atining ta'lim-tarbiya maskanlarida bolalar bilimi, ongi va tafakkuriga ijobiy ta'siri haqidagi g'oyalarini ilgari surdi. Kvintilian o'qituvchilar va tarbiyachilarning qizg'in faoliyat olib borishlari uchun notqlik san'atini mukammal o'rganishga doir o'zining metodikasini taqdim etdi. Ushbu metodika notqlik san'ati tarixida ulkan ahamiyatga ega va hozirgi davrda ham o'z qimmafini yo'qotmagan.

Nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim

Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolaning kundalik oddiy salomqaligidan tortib, kimga nimani, qachon, qaerda va qanday so'zlashigacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi.

Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak -tilak, ba'zan chaqiriq-murojaat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy istirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi.

O`qituvchi ovozinining xususiyatlari nimadan iborat: 1. Bu ovozning kuchi. Ovoz kuchi tovush organlarini ishiga, ularning faoliyatiga hamda nafasi chiqarishga bog`liqdir. 2. Tovushning qancha masofaga etkazilishi. Bu bilan mutaxassislar o`qituvchi ovozini qay masofaga etkaza olish va uni qay yo`l bilan sozlashishi aniqlab oladilar. 3. O`qituvchi nutqida ovozning xarakati va o`zgaruvchanligi muhim ahamiyatga ega.

O`qituvchi ovozi ravon, jarangdor, aniq va o`ziga jalb etadigan bo`lishi kerak. O`quv materialini qiyin joylarini o`qituvchi ovozini sekinlatgan holda tushuntirib, qolgan vaqtda tezroq gapirishi kerak.

Hozirgi zamon pedagogika Fani o`qituvchining pedagogik maxorati tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb biladi. Chunki u o`qituvchiga o`z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his tuyg`ularni (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash jarayonida qo`llash yo`llarini tushuntiradi.

Pedagogik texnika ma`lum kasbiy va shaxsiy maalaklar yig`indisidirki, u o`qituvchining pedagogik faoliyatiga ta`sir ko`rsatish, tashkil qilish va bohqarish ishlarida asosiy yo`l ko`rsatuvchi bo`lib xizmat qiladi.

Xo`sh! O`qituvchining pedagogik texnikasi qanday malaaklardan iborat? U o`qituvchining o`quv ishlarini tashkil qilish, amalga oshirishi va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishda qanday rol o`ynaydi?

Ilg`or va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish, mimikasini, ovozini idora qila olish xususiyatlari kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bunday o`qituvchilar pedagogik texnikani yaxshi egallagan, uning malakalarini o`zlarida aniq shakllantiragan. Va bu malakalarni turli vaziyatlarda qo`llay olish qobiliyatlariga ega bo`lganlar.

O`quvchi materiallarni aniq, to`g`ri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir minutda 120, inglizlar 120 dan 150 gacha, frantsuzlar 110 so`zni talaffuz qilarkanlar. O`rtacha, hammaga tushunarli bo`lishi uchun o`qituvchi 5-6 sinflarda 60 so`zni 10-11 sinflarda 75-80 so`zni talaffuz etsa talabga muvofiq

bo`ldi. O`qituvchi nutqini lo`nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa u tanglovchilarga shuncha tushunarli bo`ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi.

Notiqlik mahorati quyidagi tuzilmaga ega:

- ⊙ Ma`ruza mazmuniga kerakli axborotlar, materiallarni tanlash;
- ⊙ Rejani tuzish, yig`ilgan materiallarni ma`lum mantiqiy ketma-ketlikda ajratish;
- ⊙ Nutqqa adabiy ishlov berish, mazmunini boyitish;
- ⊙ Ma`ruza matnini yodlash, eslab qolish;
- ⊙ Ma`lum ovozning balandligida, mimika, xatti-xarakatlar bilan nutqni so`zlash.

Ma`ruzaning sifati uning mantiqliligiga va taqdimiga, nutqning boyligi va aniqliligiga va axborotni boyligiga bog`liqdir.

- ⊙ Notiq yo`l qo`yadigan ba`zi xatolar:
- ⊙ Nutqdagi turg`unlik – ko`p qo`llaniladigan, hech kim eshitmaydigan so`z va so`z iboralari;
- ⊙ Kotselyarizm-muloqotning byurokratik uslubida qo`llaniladigan so`z va so`z iboralari;
- ⊙ Bachkanalik- adabiy bo`lmagan yoki mazmuni, harflari buzilgan so`z va so`z iboralari;
- ⊙ Jargon –jinoyat dunyosidan olingan so`z va so`z iboralari;
- ⊙ Ko`pso`zlik- o`zining fikrini mantiqan aniq va lo`nda ifoda eta olmaslik;
- ⊙ Parazit so`zlar- «mana shu», «masalan», «aytaylik», «shunday qilib» va h.k.
- ⊙ Og`zaki nutqning o`ziga xos xususiyatlari:
- ⊙ Donolik- fikrlarning donoligi, o`tkir yoki kulguli so`z iboralarini tanlash va joyida qo`llash;

Yaxshi notiq diqqatini quyidagi amallarga qaratishi kerak:

- ⊙ Tinglash va eslab qolish qobiliyati;
- ⊙ Mustaqil o`qish;
- ⊙ O`rganish;
- ⊙ Tadqiqotlarni olib borish;

- ⊙ Yig`ilgan materiallarni tahlil qili shva ajratish;
- ⊙ Suhbatni olib borish;
- ⊙ Savollarga javob berish;
- ⊙ O`zning fikrlarini yozma ravishda bayon qilish;

Nutq rejasini tuzganda quyidagilarga e`tibor berish kerak:

- ⊙ Tinglovchi uchun bu mavzu nega kerakligini aniqlash, maqsadni belgilash;
- ⊙ Mavzuni tinglash, agar berilgan bo`lsa, uni tahlil qilish;
- ⊙ Mazmuni uchun foydali ma`lumotlar tanlash;
- ⊙ Asosiy nuqtalarni, mavzularini aniqlash;
- ⊙ Tanlangan materialni ajratish, asosiylarini qoldirish;
- ⊙ qiziqarli kirishni topish;
- ⊙ Xulosani tayyorlash;
- ⊙ Takrorlash va nutqni kurib chiqish;

Notiq savollarga javob berishi lozim bo`lgan vaqtda:

- ⊙ Berilgan savol nima maqsada berildi;
- ⊙ Inson to`g`ri tushunishiag tayyorlash;
- ⊙ Xurmat bilan to`g`ri tushuntirib, javob berish;
- ⊙ O`ziga ishonch va mehr bilan so`zlashish darkor.

So`zlarni aniq gapirish uchun quyidagilardan unumli foydalansa bo`ladi:

- ⊙ Tabiat bergan nutq organlaridan to`g`ri foydalanish;
- ⊙ So`zlar qanday tashkil topganligini bilish;
- ⊙ Har bir so`zni baland ovozda, tezlikni saqlab, aniq gapirish;
- ⊙ Harflarni tushirib qoldirmasdan gapirish;
- ⊙ Boshni pastga tushirmasdan, og`izni katta ochib gapirish;
- ⊙ Bo`yin, yuz va boshqa bo`g`inlarni bo`sh xolatda ushlab.

2.2 Zamonaviy pedagogning pedagogik va tarbiyachilik mahoratini oshirish yo'llari

«...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, Murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.»deb bejizga aytib o'tmaganlar prezidentimiz I.A.Karimov.Pedagoglik kasbi o'z moxiyatiga ko'ra o'ta individualdir.

Xar bir pedagogning muxim hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishdir. Master (usta) juda ilg'or, bilimdon, yoki o'z ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. pedagog mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog avvalo pedagogik jarayonning konuniyatlari va mexanizmlarini yashxi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari. uning pedagogik texnikasi katta axamiyatga molik buladi. Mahorat-bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lish mumkin emas. Maxoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga etishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni. shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fukarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

“Pedagogik maxorat” bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987-1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik maxorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik maxorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

- Pedagogik mahorat;
- Pedagogik ijod;

- Novatorlik;
- Kasbiy bilimdonlik;
- Faoliyat uslubi;
- Innovatsion faoliyat;
- Pedagogik texnologiya;
- Mahorat.

O`quv tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni ana shu xil orzuning ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Xo`sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo`ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi maktablarda «Pedagogik mahorat» tushunchasi turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushunchaning mohiyatini bir muncha to`laroq aniqroq ta`rifini «Pedagogik ensiklopediya»da berilgan deyish mumkin. Bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta`rif pedagogik mahorat mazmunini va mohiyatini bir muncha to`g`ri yoritadi. «Tarbiya va o`qitish yuqori darajaga erishishi va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta`minlovchi san`at bo`lib, talabaga mehr qo`ygan va o`z kasbini sevgan har bir pedagogning qiladigan ishi»³.

O`z ishining mohir ustasi bo`lgan pedagog – bu yuksak darajada madaniyatli, o`z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san`atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o`qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir.»

Bu ta`rifni yaxshi tushunib, uning ma`no mohiyatini tahlil etadigan bo`lsak, Ushbu ta`rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmunga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin biladi:

1. umumiy madaniyatning yuqori darajasi va bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko`rsatkichi;
2. o`zining o`qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi;

³ Kamolova N.K. «Talaba yoshlarda iqtisodiy bilim va ko`nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari» Nomzodlik dissertatsiyasi. 2005 yil

3. pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o`qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

4. o`quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallanganlik.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o`zaro bog`liq bo`lgan asosiy qisimlarni ajratish mumkin:

1. pedagogik insonparvarlik yo`nalishi;
2. ixtisos mutaxassislikka doir bilimlar;
3. pedagogik qobiliyat;
4. pedagogik texnika (ko`nikma-iqtidor).

Pedagoglik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so`nmaydi. Pedagoglik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak.

Hozirgi davrda, biz mustaqil o`zbekistonda kurayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko`rsatadigan pedagog qanday bo`lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muxim asos – bu insonparvarlik yo`nalishidir. Pedagog juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda kup narsani bilishi kerak, xozirgi zamonda o`zi o`qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo`lishi kerak, o`z o`quvchilarini har kuni o`qishga o`rgatib borishi uchun o`zi muntazam o`qib o`rganib, o`z bilimini to`ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, pedagog pedagogik mahoratning asosi o`z ustida ishlab borishi – mustaqil o`qishdir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta`lim-tarbiya ishlarining qay yo`sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo`lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta`lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an`analarni joyga qo`yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burulishlar bo`lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza odob-axloqli

qalb ekanini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu katta muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarni o`rni muhim va pedagogik mahorat fanining ro`li ulkan. Pedagogik mahorat fanining vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsada, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o`rtasidagi bog`lanishlarni ko`rsatadi: shuningdek pedagogik mahorat fani o`z taraqqiyoti davomida ta`lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo`llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko`rsatib beradi. Pedagogning pedagogik mahorati shunday bir malakalar yig`indisidirki, u pedagoga tarbiyalanuvchilar ko`rib va eshitib turgan narsalar orqali o`z fikrlarini yetkazish imkonini beradi.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari:

Nutq malakalari

Tushunarli ta`sirchan fikr va his-tuyg`ularni so`zda aniq ifodalash

Mimika va fantomimika

Ma`noli qarash

Xissiy psixik xolat

Kayfiyat yoki istexzoli tabassum

Savodli gapirish

Aniq imo-ishora

Rag`batlantiruvchi munosabat

Ijodiy jiddiylik.

O`zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq talaba yoshlarni ma`naviy qadriyatlar ruxida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo`lib qoldi. Chunki davlatning asosini ma`naviyat tashkil etadi, o`z ma`naviyatiga e`tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevoridir» nomli ma`ruzasida ta`kidlaganidek “Bizning Respublikamizda o`zimizning ma`naviy

qadriyatlarimizni, ta'limning milliy tizimini takomillashtirish hamda uning milliy asoslarini mustahkamlashga aloxida e'tibor berilmoqda".

Shuni aytish kerakki insonning ma'naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishida olib keladi. Demak axloq insonning ijobiy sifatlari majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odob aloxida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Odob-bu xar bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotiga hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq odob normalari.

Madaniyat-jamiyatning ana unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat-inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy intellektual fazilatlar majmuasidir.

Mustaqil fikrlash- bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi.

Tafakkur-inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmualarining keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Ijodkor pedagog talab yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Pedagog ijodkorligi natijasida talaba yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari va urf-odatlarini haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi. Ma'naviy meros manbaalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba yoshlarning xulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va pedagog -talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunday xar bir darsdan

pedagog maqsadni aniq ko`ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to`g`ri belgilab olishi lozim;

- dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta`lim va tarbiyaviy tomondan o`rganiladigan bilimga bo`lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi umumjahon sivilizatsiyasi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, milliy an`analar va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan holda kuchli demokratik huquqiy jamiyat qurish yo`lini tanladi. Bu esa, mamlakat oldiga turli sohalar bo`yicha malakali kadrlar, texnik-mutaxassislar va rahbar xodimlar tayyorlash, kichik biznes, tadbirkorlik va fermer xo`jaliklarini rivojlantirish singari dolzarb vazifalarni qo`ydi.

O`zbekistondagi ta`lim islohotlari natijasida tashkil etilgan zamonaviy qishloq xo`jalik kasb-hunar kollejlari davlat ta`limi standartlari doirasida kichik mutaxassislar tayyorlovchi ta`lim muassasasi bo`lib, u o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko`nikmalarini chuqur rivojlantiradi, unga tanlagan kasb-hunari bo`yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni beradi. Shu bois davlatimizda iqtisodiy yo`nalishdagi kasb-hunar kollejlari rivojlantirish va shu soha uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e`tibor berilmoqda.

O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov «Bugungi kunda oldimizga qo`yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri-bularning barchasi avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog`liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz», -deb ta`kidlaydi.

O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`g`risidagi" "Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta`lim soxasini, ya`ni o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini, ularda faoliyat ko`rsatuvchi pedagogik kadrlar tayyorlashni rivojlantirishga alohida e`tibor berilgan. Bu sohani rivojlantirish uchun esa yangicha fikrlaydigan, o`qitishning zamonaviy usul, shakl va

vositalaridan samarali foydalana oladigan yuqori malakali pedagog kadrlar zarur.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ning asosiy maqsadi - ta'lim tizimini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'navii va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi:

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy mavqeini kutarish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda usullarini ishlab chiqish va joriy etish.

Dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida (1997 - 2001 yillar) pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etishning amalga oshirish zarurligi qayd etilgan.

Shu kun talablariga javob beradigan bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlashning muxim tomonlaridan biri — bu ularni kasbiy pedagogik malakalarini yuqori darajada shakllantirish hamda o'quv jarayonini takomillashtirishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish yangicha pedagogik fikrlashning kalitidir. Uning sifati, me'yori va samaradorligi o'qituvchi hamda butun kasb ta'limining faoliyatiga bog'liqdir. Takomillashtirish, asosan o'quv jarayoni, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni, o'quv metodik adabiyotlarni yaratishni o'z ichiga oladi hamda uning mazmuni, shaxsiy yo'llanma, qo'lga kiritiladigan tajriba yutuqlariga qarab belgilanadi va amalga oshiriladi.

Bo'lajak iqtisodchi pedagog kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlarining asosiy nazifalaridan biri - bu talabalarning kasbiy—pedagogik malakalarini shakllantirish xisoblanadi. Bu jarayon pedagogika yo'nalishidagi fanlarni o'qitish orqali amalga

o'shiriladi. Bu fanlar talabalarni bo'lajak pedagogik faoliyatiga tayyorlash tizimida asosiy fanlar hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- Malaka tavsifi talablariga (nimani bilishi va bajara olishi).
- O'qitish mazmuni amalga oshiriladigan tarbiya, maqsad va vazifalariga mos kelishi.
- Pedagogik kadrlar tayyorlashning barcha jihatlarini birligi va o'zaro bog'liqligi.
- Kasbiy ta'lim berish mazmunining fan va texnika taraqqiyoti talablariga mos kelishi.

O'qituvchi - ta'lim miqiyosida rahbar, u fanlarni o'rganishda yo'nalishlarni ko'rsatadi va ta'lim oluvchilarga ta'lim beradi va tarbiyalaydi.

Kasbiy ta'lim fanlari bo'yicha o'qituvchilar faoliyat yo'nalishlariga oid quyidagilarni bilishlari va uddalashlari lozim:

- Kasb-hunar kollejlari o'quv-ishlab chiqarish jarayoni va amaliyotining ilmiy, nazariy-metodologik, pedagogik asoslarini;
- Ta'lim muassasalari oldida turgan o'quv-uslubiy ishlarning dolzarb masalalarini va ularni yechish yo'l-yo'riqlarini;
- Ilg'or pedagogik tajribalarni, uslubiy ish shakllarini umumlashtirish va ommalashtirishni;
- Darslarni kuzatish va uni tahlil qilishning pedagogik asoslarini;
- Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi asoslarini va uni tashkil qilishni;


Iqtisodchi pedagog darsni o'tkazishda o'rganiladigan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni axborot, ma'lumot, dalillarni to'plashni talabalarga avvaldan topshirishi mumkin. Yoki o'qituvchining o'zi zarur dalil, ma'lumotlar asosida talabalar oldiga muammo qo'yib, uni birgalikda yechishi mumkin. Bunda amaliy o'yin, turli iqtisodiy modellarni ifodalovchi grafik, jadvallardan va boshqa

uslublardan foydalanish orqali tadqiqot o`tkazish, tadqiqotning qiziqarli tarzda bo`lishiga olib keladi, hamda barcha talabalarning faol qatnashishiga erishiladi.

Bu usulda butun guruh birgalikda iqtisodiyotni, qolaversa dunyoni yaxshiroq tushunishga intiluvchi izlanuvchilarga aylanishadi. Quyida iqtisodchi-pedagogni modelini keltirib o`tamiz.

2.2.1-rasm

Iqtisodchi-pedagog modeli



O'ylaymizki, barcha ta'lim muassasalarida dars beradigan o'qituvchilar yuqoridagi sifatlarga ega bo'lsa, kelajakda har tomonlama etuk, mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim.

«Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo xalet; yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" - degan fikrini kup mushoxada kilaman. Buyuk ma'rifatparvar bu suzlari asrimiz boshida millatimiz, uchun kanchalar muxim va dolzarb bulgan bulsa, xozirgi kunda biz uchun xam shunchalik, balki undan xam kura muxim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya ong maxsuli, lekin ayni vakt da ong darajasi va uning rivbjini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini uzgartirmasdan turib biz kuzlagan oliy maksad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bulmaydi,» - degan edilar Prezidentimiz I. A. Karimov uz asarlarida.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bulgan yoshlarni xar tomonlama kamolga etgan barkamol inson kilib tarbiyalashda ularning ma'naviyat kirralari:

iymon, e'tikod, mexr, vatanparvarlik, dustlik, insonga cheksiz muxabbat, muruvvatlilik, kanoatlilik, sabr-tokatlilik, saxiylik, milliy gurur kabi fazilatlarni shakllantirish juda muximdir. Bu mislsiz tengi yuk ishda pedagoglarning, tarbiyachilarning, ta'lim soxasida mas'ul xodimlarning xizmati benixoyat kattadir.

Tarbiya-tarixiy va ijtimoiy xodisadir. Tarbiya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan buyuk meros bulib, u komil insonni voyaga etkazishda muximdir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini ustirishga xizmat kiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy xodisa bulib, insoniyat tarakkiyotining turli boskichlarida uziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya xakida Shayx Sa'diy uzining "Guliston" asarida shunday deb

yozgan edi: "Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bulib baxtli bula olmaydi".

Adibning yukoridagi suzlariga amal qilgan xolda talabalarni ma'naviy boy, jismoniy jixatdan soglom kilib tarbiyalash maksadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniklash maksadga muvofikdir. Buni uchun talabalar kalbini odob-axlok nurlari bilan yoritmoqchi bulgan tarbiyachi -pedagog chukur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik san'atini egallamofi kerak. Talaba yoshlarni tarbiyalashda umuminsoniy kadriyatlar, islom ta'limoti, uzbek milliy urf odatlariga amal kilish maksadga muvofikdir.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bulib, unda tarbiyachi tarbiyalashuvchilarni komil inson kilib etishtirishda unga xar tomonlama ta'sir kursatadi. tarbiyachi talabalar jamoasining tarbiyaviy darajasini urganib, unga ta'sir kursatish maxoratiga ega bulishi, tarbiyaviy tadbirlarni talabalarning ruxiyatiga kanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda uz bilimni tarkibiy ravishda boyitib borish lozim.

Yurtimizda tarbiyaviy ishlarni tashkil kilishning asosiy nadsadi milliy istiklol talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga karatilgan ekan, ayni paytda bu niyat tarbiyachi-pedagoglarga katta ma'suliyatni yuklaydi. Pedagogik faoliyat yuritish davr talabiga javob bermoki lozim. Uzbekistan Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Konunning 5-moddasida xuddi shu xususda to'htalgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axlokiy fazilatlariga ega bultan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shugullanish huquqiga ega.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir talaba, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy va erkinligining e'tiborga tutilishi:

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;

- talabalar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli talabalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy kungilochar va shunga o'hshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada talabalar o'zlari hojlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, ahloqan barqaror bo'lsin.

Pedagog o'zining tarbiyachilik mahoratida milliy istiqlol g'oyasi, ozod va obod vatanga muxabbat va insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, komil insonni voyaga etkazish kabilarga e'tibor berishi lozim.

Demak, pedagog jamiyat hayotida etakchi urin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. Pedagoglarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integratsiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilari kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali, zur mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A. Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalam bor ilmli, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Shu maqsadda ko'nglida eng oliy orzularni jamlab, pedagog ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini hurmat kilib, bergan bilimlarni egallamoq kerak. Bexbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kiddaganidek "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil".

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagogik olimlari barkamol insonni etishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo`lib, pedagoglar o`zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida;

- mustakilliq tufayli o`zbek xalqining milliy, diniy g`oyalarining keng ruyobga chiqishi;

- ma`rifatparvarlik va jadidchilik harakatining tarixiy asoslari;— ona tilimiz, uning sofligini asrash;

- Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og`zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo`llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish;

- xalqimiz yaratgan milliy urf-odatlar va an`analarimizdan keng foydalanish;

- Qur`oni karim va xadisi sharifdagi inson kamolati haqidagi g`oyalarni yoshlarga o`rgatish;

- ma`rifatparvar mutafakkirlar, milliy kaxramonlar faoliyati, ularning asarlarini o`rganish, ilg`or tarbiyaviy ta`sir ko`rsatuvchi ta`limotlarga amal qilish va boshqalar.

Yuqoridagi yo`nalishlardan bizga ma`lum bo`ladiki, buyuk ajdodlarimiz yuksak taraqqiy topgan davlat barpo etgani va bu mamlakatda «Kuch adolatda» - degan bosh shior davlat siyosatining, jamiyat hayotining asosi bo`lganini yaxshi bilamiz. Bu g`oya odamlarga kuch bergan, ularda insof diyonatga, ezgulikka ishonch uyg`otgan.

Chunki jamiyatda adolat barkaror bo`lsa, millat hech qachon adashmaydi. Ertami kechmi farovon turmushga erishadi. Adolat biz qurayotgan jamiyat mezonini bo`lmog`i darkor.

Albatta bunda pedagogning bilimi, mahorati beqiyosdir. Pedagogning bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish, bilan harakatining birligi kollej talabalarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o`rin tutadi. Tarbiyaning etakchi maksadi sifatida asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolatga erishuvi g`oyasi asos bo`lib qoladi. Shaxsning har tomonlama kamolatga erishishi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to`laqonliligini, jismoniy, ahloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig`indisini o`z ichiga oladi. Yoshlarni falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga

ko`maklashish, o`z-o`zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki ular o`z shaxsiy turmushida maqsadli yondashuv reja va amal birligiga erishadilar. Talabalarni umuminsoniy va vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo`lgan talablarni shakllantirish, malakalarni oshirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish pedagog faoliyatida chuqur o`rin egallashi lozim. Har bir o`smirning, yigit va qizlarning bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, talabalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo`llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash, inson faoliyatini turli soxalarida joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo`q va bo`lmagay" - degan naqlini talabalar kalbiga singdirish mas`uliyati pedagogga topshirilgan. Tarbiya qanday bo`lmog`i kerak? Pedagogning pedagogik faoliyatining samaraga ega bo`lmog`i uchun ko`p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi, shaxs yo`nalishini aniqlanganligini va kasbiy mahoratning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi yoki ta`lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglarning o`z faoliyatlarini tubdan o`zgartirishga hamda izchil, aql-zakovatni ishga solgan holda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo`naltirishda yangicha munosabatda ish tutish talab etiladi. Chunki mamlakat ravnaqini ta`minlashda kasbiy ta`lim tizimida ijobiy o`zgarishlarning kiritilishi pedagogik xodimlarning psixologiyasida burilish yasashlik bilan belgilanadi. Pedagog talabaning ichki dunyosini tushunish boshqa odamlar bilan aloqa o`rnatish, talabaga faol ta`sir o`tkazish, hamma bilan til topishib ketish, vazminlik, odamlarni ishontirish qobiliyati, bosiqlik va o`zini tuta bilish, talabchanlik, qat`iylik, g`ayratlilik, chidamlilik, rahbarlik va tashkilotchilik, o`zi va boshqalarning xulqini boshqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashi muhimdir. Ko`p hollarda talabalar shaxsini rivojlantirishda aniq bir mezon o`lchovini belgilab

olmaydilar. Shu sababli ham pedagog talabalarga kasbiy mahoratini tarkib topishida qiynaladilar. Har qanday holatda -ham faoliyat yo`nalishini aks ettiruvchi mezon bo`lishi kerakdir.

Bu mezon pedagog faoliyatini doimo o`z-o`zini nazorat qilish imkoniyatini tug`diradi va uning samaradorligini ta`minlaydi.

Pedagog shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so`zlash madaniyatiga, yuksak odob ahloqli bo`lishi kerak. Talabalar bilan o`tkaziladigan suhbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, pedagog quyidagi madaniyat qirralariga ega bo`lishi kerak.

Ruxiyat madaniyati - talabalarning ma`naviy ehtiyojlariga to`g`ri ta`sir ko`rsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo`r quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo`lish.

Ma`naviy madaniyat - talabalarning ijodiy, ma`naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

Bundan tashqari, pedagog o`zining tashqi ko`rinishiga ham e`tibor berishi kerak, toza-ozoda, ixcham kiyinishi kerak. Bundan tashqari oliy ma`lumotli, chuqur bilim egasi o`zining fanini puxta biladigan, yurt ravnaqi uchun jonini fido qilishga tayyor, o`z shogirdlaridan bilimi, malakasini ayamaydigan, talabalarga aziz, do`st, sirdosh, kollejning fidokor xodimi bo`lmog`i lozimdir.

Pedagog tarbiya jarayoni yanada samaraliroq o`tishi uchun turli xil ko`rgazmalardan, texnik vositalardan unumli foshdalanishi mumkin. Buyuk mutafakkirlarimizning noyob asarlari, ularning hikmatli so`zlari, turli qaxramonlik lavhalari tasvirlangan rasmlar, odob-ahloq mavzusidagi filmlar texnik vositalar sifatida tarbiyaga ta`sir qiladi. Insonni ma`naviy barkamol qilib tarbiyalashda o`zbek xalqining milliy va madaniy qadriyatlaridan foydalanish, manbaashunoslikka o`rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda talabaning ruxiyati, qiziqish jarayonidagi ijobiy va salbiy sifatlarining mavjudligi darajasiga e`tibor berish, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va

samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo'lish pedagogning pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagoglarning bu mashaqqatli mehnatlarini qadrlagan holda talabalarning o'zlari ham yaqin yordamchi bo'lishlari kerak. Shu o'rinda Koshifiyning "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar javob bergil: Iroda va sabr toqat, nimaiki ustoz istasa, uni jon qulog'i bilan eshitib, chin ko'ngli bilan qabul qilish, e'tiqodli bo'lishdir" degan so'zlari o'rinlidir. Talabalar mehnatining davlat tomonidan munosib tarzda taqdirlanishi ularning qobiliyatini yanada rivojlantiradi, ularning ijodiy faoliyati mukammallashadi, o'z ustida olib borayotgan ishlari takomillashadi, o'ziga berilgan mukofotga ijobiy javob beradi.

Albatta bu o'rinda har bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng talabalarning bo'sh vaqtini taqsimlash kerak. Bunda talabalarning ota-onalari bilan yaqindan munosabatda bo'lishlari kerak, ular bilan suhbatlarni quyidagi yo'nalishlarda olib bormog'i lozim:

1. Talabaning xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqei, ruhiy holatini o'rganishda.

2. Odob va axloqqa doir suhbat. (sharqona urf-odat, rasm-rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar).

3. Tarbiyasi murakkablashgan talabalarning ota-onasiga maslaxat berish, pedagogning yakkama-yakka suhbatlari puxta, asosli va- mantikan boy bulsa, ota-onani unga ishonchini oshiradi - natijada erkin dil so'zlari, maslahat, o'zaro yordam kabi bir hamkorlik holati vujudga keladi.

Pedagog ota-ona va talabalar bilan yakkama-yakka faoliyatini yulga kuyish uchun ota-onalar shaxsini, oilaviy ahvolini bilish kerak. Pedagog ota-onalar haqida ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ularning farzandlari haqida ma'lumotni aniqlab olish muhimdir. Pedagogning talabalarni to'liq o'rganishi, tarbiyaviy tadbirlarni mukammal ta'sirchan uyushtirishga imkoniyat yaratadi. Pedagog uz faoliyatida kuyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Talabalarda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga kiziktirish, rostguy, ma'rifatli, mexrli, dustlik, uz-uzini boshqarish, mehnatga munosabatini rivojlanish.

2. Talabalarning ruhiy quvvati va temperament turlarini ajrata olish.

3. Talabadagi ijobiy va salbii uzgarishlarni kuzatish va sababini urganish.

4. Talabadagi yolg'on gapirish va boshka salbiy sifatlarini aniklash.

Talabalar bilan turli sayoxatlar uyushtirish, kinoteatrlarga borish, uyinlar tashkil kilish, bayramlarga bag'ishlangan kechalar utkazish maksadga muvofikdir. Masalan: "Gullar bayrami" ertaligini utkazish talabalarning estetik xis tuygularini ustiradi.

Bayramni utkazishdan maksad talabalarda yil fasllardagi mavsumiy uzgarishlarni kuzatib borish, tabiatdagi usimliklar dunyosi, turli-tuman gullar, ularning ustirishi va boshkalari xakida tushinchalar berishdir.

Fan pedagoglari xar xil musobaqalar bellashuvlar o'tkazishlari ham talabaniing bilimiga bilim kushadi, dunyokarashini o'stiradi, guruhdoshlari bilan aloqani mustahkamlaydi; mustaqil fikrlashga undaydi. Kollejlarda tashkil qilingan har xil to'garaklar ham talabalarning tarbiyasiga yaxshi ta'sir qiladi. Qaysi pedagog tashkilotchi, yangiliklarga intiluvchan bo'lsa, uning talabalari inoq, mehribon bo'lib o'sadilar. Ular dustlarining, ota-onalarining, pedagoglarining, ilmning qadriga etadigan barkamol inson bo'lib o'sib ulgayadilar. Davlatimizning eng buyuk maqsadi ham asli shudir.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonining natijalari pedagogning mahoratiga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb kunikmasiga bog'liq ekan. Darsning samaradorligi, ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi jarayonini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

-pedagogning ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, ilmiy nazariy va metodik darajasini oshirish;

- pedagogik mehnat sifatiga, darsga tayyorlanishga mas'ul munosabatni belgilash;

- barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar buyicha samarali nazoratni tashkil etish;

- talabalarda o`ishga mas`uliyat munosabatni tarbiyalash buyicha ular bilan ish olib borish, bilimlaridagi nuksonlarning oldini olish, bilim, kunikma va malakalarning yuksak sifatiga ega bulishi uchun kurashish, bu ishga talabalarning uzini faol jalb kilishi kerak.

Bu yunalishlarning har biri bo`yicha aniq o`ylab chiqilgan, ilmiy jixatdan asoslangan ishlar rejasi, pedagoglar jamoasi uning o`quv-tarbiyaviy ishlari darajasidan kelib chiqadigan tizimi bulishi zarur.

2.3 O'qituvchi nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Taniqli notiqlar ham o'z nutqlarining namunali bo'lishini ta'minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e'tibor berganlar:

1. O'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masalaga o'z munosabatini aniq belgilab olish;

2. O'z dunyoqarashiga ega bo'lish, so'z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga mas'uliyat bilan yondoshish, uni omma oldida to'liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish, jumladan, ma'ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o'ylab olish, masalalarni o'rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlash, ma'lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o'zi uchun alohida va keng to'xtalish zarur bo'lgan urinishlarini belgilab olish va boshqalar.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiyko'chirmalarning ham o'rni beqiyosdir. quyidagi misollarga e'tibor beraylik: Odam bo'l, otang kabi axmoq bo'lma – Odam bo'l otang kabi, axmoq bo'lma yoki Mulla a'lam to'g'ri, odam emas – Mulla a'lam to'g'ri, odam emas. Bu gaplarda ohangning o'zgarishi gap mazmunining tamomila o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so'z va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi Abdulla Qahhor o'z hikoyalarining ko'pchiligida epigraf sifatida maqollar keltirish bilan darhol o'quchini diqqatini tortadi: “Osmon yiroq – er qattiq” (“Bemor”); “Otning o'limi – itning bayrami” (“O'g'ri”) kabilar. Ochiq chehrali odam ikki yuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi. Ochiq chehralilik, ayniqsa, o'qituvchi uchun zarur fazilatlardandir. Zero, o'quvchilar qalbiga yo'l topish, mehrini qozonish, o'z fanining chinakam ixlosmandi qila olish xazilakam ish emas. Buning uchun, albatta, o'qituvchining keng fe'li-yu saxovatli qalbi o'tkir zehni-yu, tiyrak nigohi muhimdir. Agar, o'qituvchi o'quvchilarning yuragiga

yaqin narsalarni bilolmasa, ularda o'ziga nisbatan iliq hissiyot hosil qilolmasa, ular ko'ngliga yo'l topishi juda qiyin bo'ladi.

Inson xulq-atvorida eng muhim qonun bor, agar biz bu qonunga amal qilsak, hech qachon ko'ngilsiz holatga tushmaymiz. Chunki bu qonun o'quvchilarni ko'proq o'zimizga mo-yil qilishga yordam beradi. Lekin, biz uni ozgina buzishimiz bilan darrov ko'ngilsizlikka uchraymiz. Bu qoida quyidagichadir: o'quvchilar bilan shunday muomilada bo'lingki, ular bu muomiladn o'zlarining ahamiyatliroq ekanini his qilishsin. Boshqalarning ko'z o'ngida ahamiyatli bo'lish xohishi inson tabiatining eng asosiy belgilaridan biridir. Chunki kattalarning o'z suhbat mavzusi bo'lgani kabi, bolalarning ham to'lib-toshib gapiradigan mavzulari bo'ladi. Shuning uchun ko'pni ko'rgan kishilar bolalar bilan bola bo'lib, keksalar bilan keksa bo'lib suhbat qurishga harakat qiladilar.

Tajribali o'qituvchilar suhbat chog'ida inson ko'nglini asrashga unga muloyimlik bilan yo'l topishga harakat qiladilar. Biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin o'quvchisini (tinglovchini) suhbat mavzuiga tayyorlab olishga intiladilar. Shunday qilinganda eshituvchi har qanday hayajonli yoki qay2uli xabarlarini ham ancha engil qabul qiladi va to'g'ri munosabatda bo'ladi. Inson qalbini zabt etish, uning muhabbatini qozonish uchun ko'p narsa kerak emas, shirin so'z, samimiy muomala kifoya.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham sanàt. Lekin bu sanàtdan bebahra insonlar ham hayotimizda uchrab turadi. Bu sanàtdan, boshqa kasb egalaridan farqli o'laroq o'qituvchi bebahra bo'lsachi? Bu aslo kechirib bo'lmas xoldir. "Qaysi fanni o'qitishdan qatì nazar, o'qituvchining asosiy quroli, ta'bir joiz bo'lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o'tkir bo'lmasa, erning ham, ketmonchining ham xoliga maymunlar yig'laydi. Xuddi shunday, o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun

ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. o'qituvchi go'zal, o'zini ham, so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir". ("Ma'rifat manzillari" N.Maxmudov, 28-bet).

Nutq odobi – insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. o'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z anànalariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, Nutqni har bir shaxs o'zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi. YOqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan notiq tinglovchilarni ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o'z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish mahoratiga ega bo'lishi darkor. o'z ovozida kamchilik sezgan notiq uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va yaxshilash texnikasi bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi. Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo'lmog'i lozim:

- jarangdorlik
- keng diapazonlilik;
- xavodorlik;
- ixchamlik;
- chidamlilik;
- moslashuvchanlik;
- qarshi to'lqinlarga nisbatan barqarorlik.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin:

- 1.Og'zaki nutq texnikasi;
- 2.Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi – bunda tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Yozma nutq texnikasi - bu nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

A) har qanday yozma nutq xat boshidan bosh harf bilan boshlanadi. har gap mazmunan, nisbatan tugallagan bo'lishi, erkin fikr anglatishi kerak. Gap tugagandan so'ng mazmunga ko'ra tegishli tinish belgisi qo'yiladi;

B) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa bir fikr xat boshidan boshlanishi zarur. Xat boshidan bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;

V) diologlardan tashkil topgan yozma nutqdan har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;

G) ko'chirma gaplar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinad

D) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;

e) ot, kesim, izohlovchi, undalma ajratilgan bo'laklarga tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

J) nutqning xat boshidan yirik qismlari boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Nutq ma'lum suràt bilan aytiladi nutq aytilish jarayonida surat oshib yoki pasayib turadi. Bu ifodali so'zlashga xos xususiyat bo'lib, tinglovchi xulqiga ta'sir etishi, nutqning yaxshi etib borishini ta'minlaydi. Suràt ifodali nutqning ajralmas bo'lagi. Suràtsiz bir maromda aytilgan nutq lanj, ta'sirsiz bo'ladi. So'zlashganda ba'zi o'rinlarda suràtni oshirib borish, jonlantirish, tinglovchilar diqqatini jalb etishdir.

Xulosa.

Nutq madaniyati hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablar va umuman dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bogliq. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrini bayon qila olish, til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda qo'llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi, ayniqsa o'qituvchi pedagog uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O'zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o'rganish ham pedagog muloqot, nutqi madaniyati uchun nixoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til meyorlarining umumiy holatini, undagi turgun va noturgun hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

Til ham, fe'l-atvor ham odamga qon bilan kirib, uning butun jismu joniga taralib ketuvchi an'analar ekan, bularga e'tibor bermaslik, hamisha katta-kichik fojialarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli ham pedagog nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- nutqning to'g'riligi;
- nutqning aniqligi;
- nutqning ifodaviyligi;
- nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish,

so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

- nutqning ravonligi;
- nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

- O'qituvchi nutqining aniq boiishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

- O'quvchilar bilimlarni eng birinchi navbatda o'qituvchining jonli nutqi orqali oladi. Shuning uchun o'quvchilarning fanlarni puxta o'zlashtirish darajasi o'qituvchi nutqining sifatiga ham bog'liqdir. O'qituvchining leksika, fonetika, talaffuz, gaplarni to'g'ri tuzish, so'zlarda urg'ularni o'z joyiga qo'yib gapirish va hakazolar jihatidan to'g'ri bo'lishi kerak.

- O'qituvchining nutqi o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq - atvorlari va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir. O'qituvchining nutqida uning hissi, intilishlari, iroda va e'tiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan o'quvchilarda xursandlik, ruxlanish, muhabbat, sadoqat, g'azablanishi, nafratlanish hislarini tug'diradi. Nutqning ta'siri ko'rsatuvchi funktsiyasida intonatsiya katta rol o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va harakatlar xususiyatlari, norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo'ladi. shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarni dars materiallarini puxtaroq o'zlashtirib olishga da'vat etmoqchi, ma'lum bir harakatda yo'llamoqchi bo'lganda, o'z nutqida talaffuzga alohida e'tibor beradi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda o'qituvchi nutqining to'g'riligi, aniqligi, ifodaviyligi, sofligi, ravonligi, boyligi uning nafaqat o'zi o'quvchilarga

o`zi o`rgatmoqchi bo`lgan fanning tushunarli bo`lishini, balki ular bilan muloqatda bo`lishini, hamkasblari o`rtasida ma`lum darajada obro`sini ham ko`taradi.

ADABIYOTLAR

1. . O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O`zbekiston, 2009. – 40 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta`lim Me`yoriy hujjatlari – T.: “Sharq”, 2001.
3. “Ta`lim to`g`risida” O`zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta`lim Me`yoriy hujjatlari . – T.: “Sharq”, 2001.
4. Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qarori // Ma`rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.
5. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi uchun darsliklar va o`quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to`g`risida: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 341-sonli qarori // Ma`rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.
6. 2010 yilgacha bo`lgan davrda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi pedagog va muhandis pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktabrdagi 400-sonli qarori // Ma`rifat gazetasi. – 05.10.2001. – №221.
7. Karimov I.A. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2015 yil 17 yanvar..
8. Qodirov B. «Ta`lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo`nalishlar». T. «O`zbekiston» - 2000 y.
9. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy, 2003.
- 10.O`lmasov A. «Iqtisodiyot asoslari». T. «O`qituvchi» -2001.
11. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta`lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: 2002.
- 12.Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboeva F.A. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002.

13. Yo`ldoshev J.G`. Yangi pedagogik texnologiya: yo`nalishlari, muammolari, echimlari. – «Xalq ta`limi» jurnali, 1999, №4, 4-12 betlar.
14. Rasulov R., Mo`yudinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004-yil.
15. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslar. R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev.-T., 2002-yil
16. E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo`lishi va asoslanishi //Nutq madaniyatiga oid masalalar. -T., Fan, 1971-yil.
17. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., O`qituvchi, 1991-yil
18. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002-y.
19. Педагогика профессионального образования. Под. ред. В.А.Сластенина. Москва «Академия»2003.
20. Жуков Г.Н, Матросов П.Г, Каплан С.Л. Основы общей и профессиональной педагогики.-М.: Гардарики, 2005.
21. Подласый М.Л. Педагогика. Новый курс: учебник для студентов пед. вузов: В 2 кн. К.1: Общие основы процесса обучения.- М.: ВЛАДОС, 1999.
22. Сластенин В.А., Мигаеко А.И. профессионально – педагогическая подготовка современного учителя.- Сов. Педагогика, 1991, №10
23. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. - М.: Педагогика, 1980.

Internet manzillari:

1. [www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz. -O`zbekiston respublikasi oliy va o`rta mahsus ta`lim vazirligining veb sayti.
2. www.de.uz-Masofaviy ta`lim tizimiga bag`ishlangan veb sayt.
3. www.plekhanov/ru.-Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
4. www.tgeu.uz.-TDIU veb sayti.
5. www.ziyonet.uz
6. www.infocom.uz

7. www.uforum.uz

8. www.pedagog.uz

9. www.edu.uz